BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING BILIM DARAJA VA KASBIY MAHORATINI ANIQLASH BO‘YICHA MILLIY BAHOLASH TIZIMI UCHUN TEST VARIANTI TAFSILOTI

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi, matematika va uni o‘qitish metodikasi fanlaridan bilim darajasi hamda pedagogik mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimi doirasida talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (test topshiriqlari soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

I. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI ME’YORIY HUJJATLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi «Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-269-son farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi «Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-79-son farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-iyuldagi «Milliy sertifikat berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 411-son qarori;
- maktabgacha va maktab ta’limi vazirining «5 — 9-sinf o‘quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 5-fevralda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2117-2);
- O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 8-fevraldagi «Kasbiy standartlarni ro‘yxatga olish to‘g‘risida» 43-ICh-son buyrug‘i

Asos bo‘lgan standartlar:

- Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida Boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar) uchun amaldagi Davlat ta’lim standartlari;

- Oliy ta’lim tizimida Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun amaldagi Davlat ta’lim standarti;
- Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

Asos bo‘lgan o‘quv dasturlari:

- Boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar) uchun amaldagi o‘quv dasturi**;**
- Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun tegishli fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari.

II. TEST HAQIDA BATAFSIL MA’LUMOT

Test nomi	**Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining bilim daraja va kasbiy mahoratini aniqlash**
Test varianti qismlari	Ona tili - o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi; Matematika va uni o‘qitish metodikasi; Pedagogik mahoratni aniqlash (pedagogik va psixologik bilimlar, metodik moslashuvchanlik).
Davomiyligi	3 soat
Topshiriqlar soni	90 ta ko‘p tanlovli (yopiq, moslashtiruvchi va ochiq turdagi) topshiriq
Format	Bitta to‘g‘ri javob tanlanadigan muqobil javobli yopiq test topshiriqli, berilgan savollarga javoblarni moslashtirishni talab etadigan test topshiriqlari, qisqa javob yozishni talab etiladigan test topshiriqlari.
Topshirish shakli	Kompyuter orqali

Test variantida Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida boshlang‘ich ta’limning quyidagi bo‘limlari (qismlar) qamrab olinadi:

T/r	Test varianti qismi	Savollar soni	Ulushi
1	Ona tili - o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi	30	33,33 %
2	Matematika va uni o‘qitish metodikasi	30	33,33 %
3	Pedagogik mahoratni aniqlash (pedagogik va psixologik bilimlar, metodik moslashuvchanlik)	30	33,33 %

Test varianti qismlarining mavzu va mazmuniy qamrovi «Test varianti formati» va «Fan mazmuni tarkibi» bo‘limlarida keltirilgan. Baholash jarayonida test varianti qismlari bo‘yicha alohida ball hisoblanmasada, mazkur qismlar bo‘yicha talabgorlar bilim darajalari haqida ma’lumot beradi.

III. TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI

- **Y-1** – bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lgan muqobil javobli yopiq test topshirig‘i;

- **V-Y-1** – bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lgan muqobil javobli vaziyatli yopiq test topshirig‘i;
- **Y-2** – savol va javob variantlarini moslashtirishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test topshirig‘i;
- **O-1** – qisqa javobni talab qiladigan ochiq test topshirig‘i. Bu topshiriqda javob variantlari taqdim etilmaydi.

1. Y-1 (Bitta to‘g‘ri javobli yopiq test topshirig‘i)

Talabgorning ma’lumotni bilishini yoki uning ma’nosini tushunib yetganligini tekshiradi.

Maqsad: Faktik bilimlarni (shaxslarga doir ma’lumotlar, fanga doir atamalar, o‘zgarmas kattaliklar, tarixiy sanalar va x.k.), qoida va ta’riflarni esga tushirish bilan birga, qoida va ta’riflarning mohiyatini anglash hamda ularni tushuntirib bera olish darajasini aniqlaydi.

Baholanadigan ko‘nikma: Bir nechta muqobil javoblar ichidan to‘g‘risini aniqlash, o‘xshash tushunchalarni adashtirmaslik.

Darajasi: Bilish va tushunish (Blum taksonomiyasi bo‘yicha quyi daraja).

2. V-Y-1 (Bitta to‘g‘ri javobli vaziyatli yopiq test topshirig‘i)

Talabgorning nazariy bilimlarni real yoki modellashtirilgan hayotiy (kasbiy) vaziyatlarda qo‘llash, muammoni tahlil qilish va eng to‘g‘ri yechimni tanlash qobiliyatini tekshiradi.

Maqsad: Faqatgina quruq fakt yoki ta’riflarni esga tushirish emas, balki olingan bilimlarni konkret vaziyat ichida tahlil qila olish darajasini aniqlaydi. Talabgordan berilgan vaziyatdagi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va qoida/tushunchalarni amaliy vaziyatga to‘g‘ri tatbiq qila olishni talab etadi.

Baholanadigan ko‘nikma: Matnda berilgan muammoli vaziyatni (keysni) to‘g‘ri tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyat bilan bog‘lay olish va bir nechta chalg‘ituvchi muqobil javoblar ichidan vaziyatga eng mos keladigan yagona to‘g‘ri yechimni aniqlash.

Darajasi: Qo‘llash va tahlil (Blum taksonomiyasi bo‘yicha o‘rta daraja).

3. Y-2 (Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test topshiriqlari)

Bu turdagi topshiriq talabgordan-tahliliy fikrlashni talab qiladi.

Maqsad: Tushunchalar, voqealar, sanalar yoki qonuniyatlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni qanchalik tushunishini aniqlaydi. Moslashtiruvchi test

topshiriqlarining tarkibiga kiritilgan har bir savol dixotomik tartibda alohida baholanadi.

Baholanadigan koʻnikma: Maʼlumotlarni guruhlash, tizimlashtirish va ularning oʻzaro aloqasini koʻra olish.

Darajasi: Tahlil va tizimlashtirish.

4. O-1 (Qisqa javobni talab qiluvchi ochiq test topshiriqlari)

Test topshirigʻiga javob talabgor tomonidan shakllantiriladi.

Maqsad: Bilimning mustahkamligini tekshiradi va taxmin qilish ehtimolini minimallashtiradi. Ishning umumiy sifatiga birdaniga dixotomik tartibda bitta baho/ball beriladi.

Baholanadigan koʻnikma: Ma'lumotni xotiradan mustaqil ravishda qayta tiklash, terminlarni toʻgʻri yozish va aniq xulosa chiqarish.

Darajasi: Qoʻllash va xotiradan tiklash.

IV. TEST VARIANTI FORMATI

Ushbu jadvalda keltirilgan maʼlumotlar testga kiritilishi mumkin boʻlgan mavzularni batafsil bayon etadi. Barcha test topshiriqlari ushbu mavzulardan bitta yoki bir nechtasini qamrab olishi mumkin. Shuningdek, mazkur jadvalda subtestlar kesimida topshiriqlar soni va topshiriqlar turlari haqidagi maʼlumotlar ham keltirilgan.

Bob	Fan / Boʻlim nomi	Topshiriq soni	Test turi
1	***Ona tili - oʻqish savodxonligi va uni oʻqitish metodikasi (*,**)***	***30***	
1.1	***Fonetika, orfoepiya va imlo boʻlimlarini oʻqitishning metodik va didaktik asoslari***	***7***	
1.1.1	Tovush va harf farqini tushuntirish usullari hamda oʻquvchilarda fonetik idrokni shakllantirish metodikasi.	1	Y-1
1.1.2	Unli va undosh tovushlarni, fonetik hodisalarni (tovush ortishi, tushishi, almashishi) oʻrgatish usullari hamda talaffuzdagi xatoliklarni diagnostika qilish metodikasi.	1	Y-1
1.1.3	Soʻzni boʻgʻinga ajratish, koʻchirish va urgʻuni aniqlashga moʻljallangan oʻquv topshiriqlarini loyihalashtirish.	1	V-Y-1
1.1.4	Alifbo, harf birikmalari va tutuq belgisining qoʻllanishini oʻrgatishga qaratilgan metodik vositalarni tanlash.	1	Y-1
1.1.5	Oʻquvchilarning sheva yoki jonli nutq ta'sirida yoʻl qoʻygan orfoepik xatolarini bartaraf etish metodikasi.	1	V-Y-1

1.1.6	Bosh harflar va qo‘shimchalar imlosini o‘rgatishda mashqlarni saralash hamda imloviy xatolar ustida ishlash.	1	Y-1
1.1.7	Qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar imlosini tushuntirish va amaliy topshiriqlar tuzish.	1	Y-1
1.2	***Grammatika va leksikani o‘qitishdagi metodik masalalar va pedagogik vaziyatlar tahlili***	***8***	
1.2.1	O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, leksik ma'nolarni (omonim, sinonim, antonim, paronim, ko‘chma ma'no) tushuntirish va lug‘at bilan ishlash metodikasi.	1	V-Y-1
1.2.2	So‘z tarkibi hamda so‘z yasalishini o‘rgatish usullari, o‘quvchilarning morfematik xatolarini diagnostika qilish va bartaraf etish.	1	V-Y-1
1.2.3	Mustaqil so‘z turkumlarini (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l) hamda fe’l kategoriyalarini (zamon, nisbat, mayl, shaxs-son, bo‘lishli-bo‘lishsizlik) o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirib tushuntirish va didaktik topshiriqlar tuzish.	1	V-Y-1
1.2.4	Yordamchi (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) va alohida olingan (modal, undov va taqlid so‘zlar) so‘z turkumlarining imlosi hamda nutqiy vazifalarini o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
1.2.5	So‘z birikmasi va gapning farqini tushuntirish hamda o‘quvchilarda sintaktik aloqalarni idrok etish ko‘nikmasini shakllantirish.	1	V-Y-1
1.2.6	Gap turlari va gap bo‘laklarini o‘rgatish hamda o‘quvchilarning sintaktik va tinish belgilariga oid xatolari ustida ishlash.	1	V-Y-1
1.2.7	O‘quvchilar nutqini kengaytirish, bog‘lanishli nutq hamda matnning mantiqiy tuzilishini (abzas, kirish, asosiy, xulosa) shakllantirish metodikasi.	1	V-Y-1
1.2.8	Badiiy va axborotli (ilmiy-ommabop matnlar, infografikalar) manbalar bilan ishlash hamda o‘qish strategiyalarini (skimming — ko‘zdan kechirib o‘qish, scanning — aniq axborotni izlab o‘qish) qo‘llash va matnni tushunish metodikasi.	1	V-Y-1
1.3	***Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi (Vaziyatli keyslar)***	***8***	
1.3.1	Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha metodik keyslar.	1	V-Y-1
1.3.2	Savod o‘rgatish bosqichlari, tahlil-tarkib metodi, yozuv gigiyenasi hamda disgrafiyaning oldini olish bo‘yicha amaliy keyslar.	1	V-Y-1

1.3.3	Fonetika va grafika asoslarini o‘rgatish hamda o‘quvchilarda fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlari va keyslari.	1	V-Y-1
1.3.4	So‘zning morfemik tarkibini (asos va qo‘shimcha) o‘rgatishdagi o‘quvchilar qiyinchiliklarini aniqlash va bartaraf etish keyslari.	1	V-Y-1
1.3.5	So‘z ma’nosini kontekst orqali tushuntirish, lug‘atlar bilan ishlash va o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bo‘yicha metodik keyslar.	1	O-1
1.3.6	So‘z turkumlarini (ot, sifat, son, olmosh, fe’l) o‘rgatish va ularning leksik-grammatik ma’nolarini tushuntirish bo‘yicha amaliy keyslar.	1	V-Y-1
1.3.7	So‘z birikmasi, gap va punktuatsiya elementlarini o‘rgatish hamda amaliy mashqlar tizimini qo‘llash bo‘yicha metodik keyslar.	1	V-Y-1
1.3.8	Bog‘lanishli nutqni o‘stirish (bayon, insho), nutqiy xatolarni tuzatish hamda disleksiya va logopedik ehtiyojli bolalar bilan ishlash keyslari.	1	O-1
1.4	***O‘qish savodxonligini rivojlantirish va matn tahlili metodikasi (PIRLS va tanqidiy fikrlash)***	***7***	
1.4.1	O‘qish malakasi sifatlarini (to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali) rivojlantirish va badiiy asar tahlili (g‘oya, qahramonlar xarakteri, muallif pozitsiyasi) metodikasi.	3	**Y-2**
1.4.2	Epik janrdagi badiiy asarlar (ertak, hikoya, masal) ustida ishlash hamda ularning tagma'nosi va tarbiyaviy g‘oyasini tushuntirish strategiyalari.	1	V-Y-1
1.4.3	Lirik she'rlar, liro-epik asarlar hamda xalq og‘zaki ijodi (doston, topishmoq, tez aytish, maqol, qo‘shiqlar) asarlarini o‘qitish va ifodali o‘qish metodikasi.	1	Y-1
1.4.4	Mustaqil va sinfdan tashqari kitobxonlik faoliyatini shakllantirish, kitob tanlash tamoyillari hamda bosqichlari bo‘yicha metodik yondashuvlar.	1	V-Y-1
1.4.5	PIRLS xalqaro baholash dasturi integratsiyasi: Matnni tushunishning 4 ta darajasi (ma’lumot topish, xulosa chiqarish, integratsiya, baholash) bo‘yicha topshiriqlar tuzish metodikasi.	1	O-1
2	***Matematika va o‘qitish metodikasi***	***30***	
2.1	***Sonlar, arifmetik amallar va hisoblash metodikasi (TIMSS standarti va ma'lumotlar bilan ishlash)***	***11***	
2.1.1	Son tushunchasining shakllanishi, sanoq bosqichlari va predmetli sanoqni o‘rgatish metodikasi.	1	Y-1
2.1.2	Ko‘p xonali sonlar, razryad va sinflar hamda xona qo‘shiluvchilarini didaktik vositalar orqali o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1

2.1.3	Pozitsion hamda pozitsion bo‘lmagan sanoq sistemalari va Rim raqamlarini o‘rgatish strategiyalari hamda metodikasi.	1	Y-1
2.1.4	Qo‘shish va ayirish amallarini konsentrik yondashuv asosida bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.5	Jadval ichida ko‘paytirish va bo‘lish amallarining ma'nosini tushuntirish hamda o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.6	Jadvaldan tashqari ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajarish usullarini o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.7	Arifmetik amallarning xossalari asosida og‘zaki va tezkor hisoblash usullarini o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.8	Bo‘linish belgilari va qoldiqli bo‘lish amallari mohiyatini amaliy tushuntirish metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.9	Oddiy va o‘nli kasrlar hamda ulushlar tushunchasini ko‘rgazmali, amaliy mashqlar va modellar orqali shakllantirish va taqqoslash metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.10	Son va arifmetik amallar tushunchasini vizual modellar, jadvallar, piktogrammalar hamda ustunli diagrammalar orqali tahlil qilish va o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.1.11	Matnli arifmetik masalalarni tahlil qilish, grafik modellashtirish, teskari masalalar tuzish va yechishga o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.2	***Geometrik va fazoviy tasavvurlarni shakllantirish hamda kattaliklarni o‘rgatishning metodik asoslari***	***10***	
2.2.1	Geometrik elementlar (nuqta, chiziq, kesma) haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirish metodikasi.	1	Y-1
2.2.2	Burchaklar va ularning turlarini o‘rgatish hamda amaliy yasash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.	1	V-Y-1
2.2.3	Ko‘pburchaklar (uchburchak va to‘rtburchaklar) hamda ularning xossalarini vizual-amaliy usullarda o‘rgatish metodikasi.	1	V-Y-1
2.2.4	Aylana va doira o‘rtasidagi farqni tushuntirish hamda sirkulda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.	1	V-Y-1
2.2.5	Fazoviy (hajmli) shakllar va ularning elementlarini modellashtirish hamda tushuntirish metodikasi.	1	V-Y-1
2.2.6	Uzunlik va massani o‘lchash, o‘lchov vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.	1	O-1
2.2.7	Yuza, hajm va vaqt miqdorlari hamda ularning o‘lchov birliklarini o‘rgatish metodikasi.	1	O-1
2.2.8	Uzunlik hamda boshqa o‘lchov birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni guruhlash va taqqoslashni o‘rgatish metodikasi.	3	Y-2
2.2.9	Yassi shakllarning perimetri va yuzasini hisoblash formulalarini amaliy topshiriqlar orqali o‘rgatish metodikasi.		Y-2

2.2.10	Fazoviy shakllarning sirti va sig‘imi (hajmi) munosabatlarini vizual modellar orqali tushuntirish metodikasi.		Y-2
2.3	***O‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va masala yechish strategiyalarini shakllantirishning metodik asoslari***	***9***	
2.3.1	Venn diagrammasi yordamida masalalar yechish, obyektlarni belgilariga ko‘ra tasniflash va vizual modellashtirishni o‘qitish metodikasi.	1	Y-1
2.3.2	Mulohazalar va mantiqiy tushunchalarga oid masalalarni ("rost" va "yolg‘on" mulohazalar) yechishni o‘qitish va didaktik materiallar yaratish mahorati.	1	V-Y-1
2.3.3	Kombinatorika va sanoq usullarini («Imkoniyatlar daraxti», «Garderob va muzqaymoq menyusi», «Xarita va geometrik sirtlarni bo‘yash», «Mukofotlash shohsupasi») o‘qitish metodikasi.	1	V-Y-1
2.3.4	Teskari yo‘nalishda yechiladigan masalalarni (orqaga qaytish strategiyasi) va teskari amallar zanjirini tuzishni o‘qitish metodikasi.	1	O-1
2.3.5	Graf usuli va bog‘lanishli mantiqiy masalalarni («Suratli va nuqtali shaharchalar», «Strelkali xaritalar», «Qalamni qog‘ozdan uzmay chizish», «Oilaviy shajara va qarorlar daraxti») o‘qitish metodikasi.	1	V-Y-1
2.3.6	Dirixle prinsipi («Qushlar va uyalar», «Qorong‘idagi paypoqlar / Qutidagi sharlar», «Tug‘ilgan kunlar va oylar», «Do‘stlashish va qo‘l berib ko‘rishish») va "eng yomon holat" strategiyasini o‘qitish metodikasi.	1	V-Y-1
2.3.7	Tarozi va idishlarga oid o‘lchash hamda quyish masalalarini minimal urinishlar algoritmi va holatlar jadvali orqali o‘qitish metodikasi.	1	Y-1
2.3.8	Qonuniyatlarni aniqlash va ketma-ketliklarni (sonli, shaklli va fazoviy qoidalar) topish hamda induktiv fikrlashni rivojlantirish metodikasi.	1	O-1
2.3.9	Matnli mantiqiy masalalarni matritsa (jadvallar) metodi va o‘zaro bir qiymatli moslik orqali yechishni o‘qitish metodikasi.	1	Y-1
3	***Pedagogik mahoratni aniqlash (pedagogik va psixologik bilimlar, metodik moslashuvchanlik va amaliy keyslar)***	***30***	
3.1	***O‘qituvchining kasbiy kompetensiyalar ramkasi***	***5***	
3.1.1	O‘quv jarayonini rejalashtirish: Davlat ta’lim standartlariga moslik, o‘quv maqsadlarining aniqligi (SMART-maqsadlar) va kutilayotgan natijalarni belgilash.	1	Y-1
3.1.2	Ta’lim samaradorligi va vaqt menejmenti: Dars bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlash, o‘quvchilarni darsga to‘liq jalb etish hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash.	1	V-Y-1
3.1.3	O‘quvchilarning shaxsiy o‘sishini rag‘batlantirish: O‘quvchining o‘quv motivatsiyasini oshiruvchi, o‘sish mentalitetini (growth mindset) shakllantiruvchi,	1	Y-1

	motivatsion va rivojlantiruvchi qayta aloqa (pedagogical feedback) taqdim etish.		
3.1.4	Inklyuziv va rivojlantiruvchi psixologik muhit yaratish: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun assistiv (yordamchi) texnologiyalardan foydalanish, individual imkoniyatlarni hisobga olish va psixologik xavfsizlikni ta'minlash.	1	V-Y-1
3.1.5	O'qituvchining kasbiy rivojlanishi: O'z professional faoliyatini tahlil qilish (autorefleksiya), kasbiy ehtiyojlarni aniqlash va rivojlanish trayektoriyasini belgilash.	1	Y-1
3.2	***Kichik maktab yoshi psixologiyasi va ijtimoiy-emotsional rivojlanish***	***5***	
3.2.1	Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari, maktabga tayyorgarlik va 7 yosh inqirozi ko'rinishlari.	1	V-Y-1
3.2.2	O'quvchilarning bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, nutq) va o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tish qonuniyatlari.	1	V-Y-1
3.2.3	Kichik maktab yoshidagi bolalarda moslashish (adaptatsiya) muammolari hamda ularni korreksiyalash usullari.	1	V-Y-1
3.2.4	Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni (SEL) rivojlantirish: Emotsional intellekt, o'z-o'zini boshqarish va tengdoshlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish.	1	V-Y-1
3.2.5	O'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini (temperament, diqqat tipi, idrok etish usuli) diagnostika qilish va psixologik yondashuv.	1	V-Y-1
3.3	***Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va raqamli muhit***	***5***	
3.3.1	Interfaol metodlar (Keys-stadi, FSMU, «Aqliy hujum») va 4K modellari: Tanqidiy fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya hamda kommunikatsiyani dars jarayoniga singdirish.	1	V-Y-1
3.3.2	Muammoli, tadqiqotga asoslangan va loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.	1	V-Y-1
3.3.3	Raqamli gigiyena, media-savodxonlik va elektron ta'lim resurslaridan darsda vizuallashtirish maqsadida foydalanish.	1	Y-1
3.3.4	Tabaqalashtirilgan (differensial) va individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari: O'quv topshiriqlarini murakkablik darajasi bo'yicha moslashtirish.	1	V-Y-1
3.3.5	Dars samaradorligini tahlil qilish: Zamonaviy dars tahlili mezonlari, darsni kuzatish va baholash talablari.	1	V-Y-1
3.4	***Metodik moslashuvchanlik va amaliy pedagogik keyslar***	***7***	
3.4.1	Dars ishlanmasi (konspekt) va didaktik materiallarni sinfdagi real vaziyat hamda o'quvchilar ehtiyojiga qarab tezkor moslashtirish (dinamik rejalashtirish) keyslari.	1	V-Y-1
3.4.2	Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvini amaliy dars jarayonida tashkil etish keyslari.	1	V-Y-1

3.4.3	Dars davomida yuzaga keladigan kutilmagan uslubiy va didaktik muammolarni (mavzuni tushunmaslik, metod ishlamasligi) tezkor bartaraf etish keyslari.	1	V-Y-1
3.4.4	Sinfda o‘quvchilar faolligi va diqqati pasaygan vaziyatlarda metodik moslashuvchanlikni namoyon etish hamda faollashtirish strategiyalarini qo‘llash.	1	V-Y-1
3.4.5	Pedagogik nizolar, bulling va inqirozli vaziyatlarni bartaraf etish (intervensiya): O‘quvchilararo nizolarni zudlik bilan to‘xtatish, mediatsiya va deeskalatsiya usullari.	1	V-Y-1
3.4.6	O‘quv jarayonida o‘quvchilarning refleksiyasini (o‘z-o‘zini va tengdoshlarini baholashini) to‘g‘ri tashkil etish metodikasi.	1	V-Y-1
3.4.7	Nostandart va favqulodda pedagogik (xulq-atvor/xavfsizlik/tibbiy) vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish keyslari.	1	V-Y-1
3.5	***Tarbiya va sinf jamoasini boshqarish***	***4***	
3.5.1	Sinf jamoasini shakllantirish (classroom climate), o‘quvchilarda jamoaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish va sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish (profilaktika).	1	V-Y-1
3.5.2	Oila, maktab va mahalla hamkorligini samarali tashkil etish, ota-onalar bilan nizosiz muloqot olib borish.	1	V-Y-1
3.5.3	O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi.	1	Y-1
3.5.4	Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar va to‘garak ishlarini samarali tashkil etish.	1	Y-1
3.6	***Kriterial baholash va pedagogik diagnostika***	***4***	
3.6.1	Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (yakunlovchi) baholashni dars jarayonida rejalashtirish va o‘tkazish: O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, deskriptorlarni belgilash hamda dars vaqtini to‘g‘ri taqsimlash.	1	V-Y-1
3.6.2	Kriterial (mezonli) baholash tizimi va rubrikalar bilan ishlash: Baholash mezonlari, indikatorlari va rubrikalarini (rubrics) ishlab chiqish hamda akademik (mezonli/baholashga oid) qayta aloqa berish.	1	V-Y-1
3.6.3	Pedagogik diagnostika, monitoring va o‘quv bo‘shliqlarini bartaraf etish (korreksion o‘qitish strategiyalari).	1	V-Y-1
3.6.4	O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlari dinamikasini kuzatish, baholashning shaffofligi va obyektivligini ta’minlash.	1	V-Y-1
JAMI		**90**	

Topshiriqlar talabgordan bir nechta bilimlarni birlashtirib, yaxlit javob shakllantirishni talab qilishi ham mumkin.

Ushbu topshiriqlar talabgorda fan mazmunini chuqurroq o‘zlashtirish va undan samarali foydalanishni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan.

Test topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt me’yori ***180 daqiqani*** tashkil etadi.

V. FAN MAZMUNI TARKIBI

1. Ona tili - o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi

Ushbu bo‘lim o‘qituvchining til qoidalari, imlo savodxonligi va matn bilan ishlash mahoratini baholashga qaratilgan.

Fonetika, grafika va imlo qoidalari: Nutq tovushlari tasnifi, unli va undosh tovushlarning talaffuz xususiyatlari. Bo‘g‘in ko‘chirish va urg‘u turlari (so‘z, mantiqiy va gap urg‘usi). Fonetik hodisalar: tovush o‘zgarishlari (ortishi, tushishi, almashishi). Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi, harf birikmalari va tutuq belgisining vazifalari. Orfoepiya va imlo: asos va qo‘shimchalar, bosh harflar, qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish qoidalari.

Leksikologiya, morfologiya va sintaksis: So‘zning ma’no qatlamlari: o‘z va ko‘chma ma’no, omonim, sinonim, antonim va paronimlar. So‘z tarkibi va yasalishi: asos va qo‘shimchalar (so‘z yasovchi va shakl yasovchi) turlari.

So‘z turkumlari: Mustaqil (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l) va yordamchi so‘z turkumlari.

Sintaksis: So‘z birikmalaridagi tobe bog‘lanish turlari, gap bo‘laklari (bosh va ikkinchi darajali), sodda va qo‘shma gap tahlili.

Matn ustida ishlash va o‘qish savodxonligi: Matn turlari va uslublarini farqlash (badiiy, ilmiy, rasmiy, ommabop). Matnning kompozitsion qurilishi, asosiy g‘oya va mavzuni aniqlash. O‘qish strategiyalari (skimming, scanning) va axborot turlarini (ochiq va yashirin) tahlil qilish. Grafik ma’lumotlar (diagramma, jadval, infografika) bilan ishlash va ularni interpretatsiya qilish.

2. Matematika va o‘qitish metodikasi

Ushbu bo‘lim o‘qituvchining matematik tushunchalarni shakllantirish va mantiqiy fikrlash darajasini baholaydi.

Sonlar va arifmetik amallar metodikasi: Manfiy bo‘lmagan butun sonlar tushunchasi va ularni o‘rganish konsentrlari: 10, 100, 1000 ichida hamda ko‘p xonali sonlarni sanash va o‘qitish metodikasi: Xona-sinf tushunchalari, sanash bosqichlari, vizual modellashtirish. O‘nlik sanoq sistemasi, xona birliklari va sinf tushunchalari. Arifmetik amallarning xossalari va hisoblashni qulaylashtirishda ulardan foydalanish. Sanoq sistemasi haqida tushuncha va uning turlari. Pozitsion va nopozitsion sanoq sistemalari, bo‘linish belgilari va qoldiqli bo‘lish mohiyatini o‘qitish metodikasi: Sonlar nazariyasi elementlarini boshlang‘ich ta’limga integratsiya qilish, induktiv izlanish va didaktik materiallar yaratish mahorati. Son tushunchasini kengaytirish. Ulushlar va oddiy kasrlarni shakllar yordamida tasvirlash va taqqoslash. Butunning ulushini topishga va ulushiga ko‘ra butunni topishga doir masalalar. O‘nli kasrlar va ular ustida arifmetik amallar bajarish.

Matnli masalalarni tahlil qilish, modellashtirish va yechish bosqichlari. Masalaning mazmunini tushunish, ma’lum bilan noma’lumni ajrata olish, har bir masalaga teskari masala tuza olish, amallarni to‘g‘ri tanlay olish

Geometrik shakllar va miqdorlarni o‘lchash: Geometrik elementlar (nuqta, chiziq, kesma) va burchak turlari. Ko‘pburchaklar, aylana va doiraning xossalari hamda chizish metodikasi. Shakllarning perimetri va yuzasini hisoblash formulalari. Fazoviy shakllar haqida tushuncha. Fazoviy shakllarning yon sirti va to‘la sirtini topishga doir masalalar yechish. Litr va kub santimetr orasidagi bog‘lanishlar, kub santimetr, kub detsimetr va kub metr, tonna orasidagi munosabatlar.Fazoviy (hajmli) shakllarning sig‘imini o‘lchash.

Miqdorlar: Uzunlik, massa, vaqt, yuza, hajm va sig‘im o‘lchov birliklari hamda ularning o‘zaro nisbatlari. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan asosiy skalyar miqdorlar.

Mantiqiy masalalar va ularni yechish metodlari: Venn diagrammasi, graf usuli va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “rost” va “yolg‘on” mulohazalar vositasida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullaridan foydalanish. Dirixle prinsipi, kombinatorika va teskari yo‘nalishda yechish (orqaga qaytish) metodi. Matnli mantiqiy jadvallar (matritsa) va qonuniyatlarni aniqlash. Graflar yordamida masalalar yechish.

3. Pedagogik mahorat

Ushbu bo‘lim zamonaviy pedagogik yondashuvlar, baholash va inklyuziv ta’lim metodikasini qamrab oladi.

Ta’lim nazariyasi (Didaktika) va dars tahlili: Didaktik tamoyillar va darsning maqsadlarini SMART asosida belgilash. Zamonaviy dars turlari va interfaol metodlarni (Keys-stadi, FSMU, «Aqliy hujum») tanlash mahorati. Darsni tahlil qilishning pedagogik-psixologik asoslari va vaqtni boshqarish (taym-menejment).

Baholash metodikasi: Formativ (shakllantiruvchi) baholashning vositalari va qayta aloqa (feedback) berish usullari. Summativ baholash (BSB va CHSB) va mezonli baholash tizimi (rubrikalar va deskriptorlar). O‘quvchilarning o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash ko‘nikmalarini shakllantirish. Zamonaviy texnologiyalar va inklyuziv ta’lim: Inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari va tabaqalashtirilgan (differensial) yondashuv. Assistiv (yordamchi) texnologiyalar va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish. Raqamli o‘quv kontentini adaptatsiya qilish va multimedia vositalari orqali ijtimoiy moslashuvni ta’minlash.

VI. KOGNITIV KO‘NIKMA DARAJALARI

Bu tasnifda Quyi daraja — bazaviy bilim va ularni qo‘llashni, Yuqori daraja esa — tahlil, sintez va baholash mahoratini o‘z ichiga oladi.

Quyi kognitiv daraja (Bilish, tushunish va qo‘llash)

Bu darajada talabgor asosiy nazariy ma’lumotlarni eslay oladi va standart vaziyatlarda qoidalarni to‘g‘ri ishlata oladi.

- **Ona tili:** Nutq tovushlarini tasniflash, imlo qoidalarini (bosh harflar, boʻgʻin koʻchirish) bilish, soʻz turkumlarini bir-biridan ajrata olish.
